

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMiy
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI ILMiy
KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

MAMUTOV UZAQBAY BALTABAYEVICH

**TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA
TAYYORLASHNING INTEGRATIV TEXNOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2023

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Mamutov Uzaqbay Baltabayevich

Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning integrativ
texnologiyasini takomillashtirish..... 3

Мамутов Узакбай Балтабаевич

Совершенствование интегративной технологии подготовки студентов к
профессионально-педагогической деятельности..... 23

Mamutov Uzakbay Baltabayevich

Improving the integrative technology of preparation for professional and
pedagogical activities of students..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 51

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

MAMUTOV UZAQBAY BALTABAYEVICH

**TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA
TAYYORLASHNING INTEGRATIV TEXNOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Ped1613 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ndpi.uz) va «ZiyoNET» ta'lim portali (www.ziyo.net.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich**
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Qodirov Quvondiq Ayitbayevich**
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Davlatov Oybek G'aniyevich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «10» VIII kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Nukus davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (59 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «27» VII da tarqatildi.
(2023-yil «27» VII dagi 59 raqamli reyestr bayonnomasi).



B.P. Otemuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.- m.f.d., dotsent

Z.K. Kurbaniyazova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d., dotsent

T.T. Utebayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda butun hayot davomida kasbiy-pedagogik faoliyat sohasida o'z-o'zini takomillashtirishga qobiliyatli mutaxassislarni tayyorlash, oliy ta'lim tashkiloti va ish beruvchi tomonidan talab qilinadigan kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan qat'iy muvofiqlashtirilgan o'zaro birgalikdagi harakatlarini ifoda etuvchi o'ziga xos innovatsion modellarni, shu jumladan, dual o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik taraqqiyot talabalmi kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlariga ham murakkab tizim sifatida yondashishni taqozo etmoqda. Bu holatda professional ta'lim hamma vaqt ham talabning kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish masalasini muvafaqqiyatli hal eta olmaydi. Shuning uchun zamonaviy kasbiy ta'lim oldiga talabalarni "qo'shimcha" mutaxassisliklar bilan qurollashtirish va ularga kasbiy faoliyat sohasini o'zgartira olishga imkon berish, shaxsiy va kasbiy faoliyatda duch keladigan turli muammolarni hal etishga qodir (Hard skills) hamda moslashuvchan (Soft skills) mutaxassislarni tayyorlash kabi qator talablar qo'yilmoqda.

Dunyoda raqamli ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish, pedagogik ta'lim jarayonlarini individuallashtirishga yo'naltirilgan kasbiy personifikatsiyaning konseptual yondashuvlarini joriy etishning tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash, integrativlik tamoyiliga muvofiq o'qitish jarayonlariga texnologik yondashuvni tatbiq etish, kasbiy-shaxsiy o'zlikni anglash, o'z-o'zini tarbiyalash mexanizmlarining intensivligini kuchaytirishning didaktik tizimini takomillashtirish muhim dolzarblik kasb etmoqda. Shuningdek, bo'lajak kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarida shaxsga yo'naltirilgan va integratsiyalashgan o'qitish texnologiyalariga ustuvorlik berish yaxlit jarayon samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Mamlakatimizda kasbiy-pedagogik faoliyatga maqsadli yo'naltirish tizimini yanada takomillashtirish, zamonaviy fan va texnika yutuqlaridan foydalanish layoqatiga ega, respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga munosib hissa qo'shadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar tayyorlash, sohaga doir ilg'or o'qitish texnologiyalarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Tarbiya va o'qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash, pedagogik kasbiga qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish"¹ pedagogika ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Bu esa, uzviylik va integrativ yondashuvning talabalarni kasbiy-

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 февралдаги ПҚ-4623-сон "Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 28.02.2020 й., 07/20/4623/0220-сон, 13.06.2020 й., 07/20/4749/0758-сон

pedagogik faoliyatga tayyorlashga doir didaktik imkoniyatlarini yoritib berish, talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning integrativ modeli va texnologiyalarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 163-son "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi Qarori hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan B.Abdullayeva, O.Abduqudusov, O.Avazboyev, I.Aliyev, U.Begimqulov, R.Djurayev, G.Jumayeva, I.Zoxidov, S.Zohidova, Z.Ismailova, N.Karimova, Z.Kurbaniyazova, M.Matnazarova, M.Maqsadova, S.Mahkamov, M.Mirsoliyeva, N.Muslimov, A.Rajabov, U.Tolipov, E.Turdiqulov, M.Urazova, Sh.Urakov, D.Ximmataliyev, A.Choriyev, Sh.Sharipov, N.Egamberdiyeva, J.Ergashev, X.Yulbarsova, O.Qo'ysinov kabilar talabalarni kasbiy shakllantirish, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashga integrativ yondashuvni joriy etish, kasbiy madaniyat va kompetensiyalarni rivojlantirish, ijodiy, ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash, shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish, nazariy-metodik tayyorgarlikni tarkib toptirish masalalarini tadqiq etishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan L.Antropova, A.Batarshhev, A.Belkin, M.Berulava, Z.Bolshakova, Ye.Zaxarova, E.Zeyer, I.Isayev, A.Liferov, S.Mironenko, S.Omelchenko, N.Pachina, V.Slastenin, S.Sokov, L.Fedotova, N.Chapayev kabilar jahon ta'lim tizimida integratsion jarayonlarning o'ziga xosliklari, talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish, integrativ ta'lim, fanlar integratsiyasi masalalarini o'rganishgan.

Xorijlik olimlardan B.Elizabet, A.Ferst-Bou Djuli, G.Orosko-Gomes, J.Issing Lyudvig, K.Kinser, A.Vann den Beyemt, Edwin Hon-wan Chan, B.Beserik-Gerber kabilar talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari, mutaxassislik fanlarini o'qitishda virtual va kollaborativ texnologiyalardan foydalanish, enjenering ta'limiga integrativ yondashuv masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Biroq nopedagogik ta'lim yo'nalishlari talabalarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari, dual ta'lim sharoitida talabalarning

kasbiy-pedagogik ko'nikmalarini shakllantirish, mazkur jarayonni amalga oshirishning integrativ modeli va texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha maxsus ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Ana shu sababli talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning integrativ texnologiyalarini takomillashtirish muammosini tadqiq etish lozim, degan xulosaga kelindi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq davlat universitetida amalga oshirilayotgan Yevropa Hamkorlik Tashkilotining ERASMUS+ dasturi asosida 574049-EPP-1-2016-1-IT-EPPKA2-CBHE-JP CD. "Smart binolar qurilishi va ekologik qurilish standartlari sohasidagi o'quv dasturlarini modemizatsiya qilish" (2018-2020 yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning integrativ texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

integrativ yondashuvning talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashga doir didaktik imkoniyatlarini ochib berish;

talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning integrativ modelini ishlab chiqish;

talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning integrativ texnologiyalarini loyihalash.

Tadqiqotning obyekti sifatida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni tanlanib, tajriba-sinov ishlariga Qoraqalpoq davlat universiteti, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining 497 nafar talabasi ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda falsafiy, ilmiy-pedagogik adabiyotlar, o'quv-me'yoriy hujjatlarini o'rganish, analiz, sintez, taqqoslash, kuzatish, suhbat, so'rovnomalar, pedagogik eksperiment, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari gnostik, loyihalash, konstruktiv, kommunikativ, tashkiliy, korreksion-rivojlantiruvchi tarkibiy asoslarga muvofiq kasbiy faoliyat motivatsiyasi va ijodiy faollikni shakllantirish, natijalarni tahlil qilishga yo'naltirilgan mantiqiy tuzilmaga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirilgan;

integrativ yondashuv asosida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni mazmunli (kasbiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, amaliy faoliyat tajribasi), boshqaruvga doir (kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash bosqichlari; jarayonni nazorat va tahlil qilish; muntazam tuzatishlar kiritib borish) va ta'limiy (maqsad va vazifalarning identivligi, shart-sharoitlar, texnologiya) bloklardan iborat didaktik parametrlarni ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan;

talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning integrativ modeli tizimli-jarayonli, aksiologik va refleksiv, shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan, mazmunli-funksional yondashuvni joriy etishning konseptual asoslariga muvofiq ravishda to'rt (funksional, mazmunli, operatsional, evristik-algoritmik) ustunli pedagogik karkasni loyihalash orqali takomillashtirilgan;

talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning integrativ texnologiyalari (binar-dialogli ma'ruza, integrativ amaliy mashg'ulotlar) maqsadni belgilash, dalillash, anglash, mustahkamlash, refleksiya bosqichlariga asoslangan texnologik xarita va algoritmik-evristik topshiriqlarni ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Pedagogik propedevtika” elektiv kursi va “Kasbiy-pedagogik faoliyat” integrativ dasturi ishlab chiqilgan;

binar-dialogli integrativ ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

algoritmik-evristik topshiriqlarga asoslangan integrativ amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullar ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi darajasi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “faoliyat”, “kasbiy faoliyat”, “pedagogik faoliyat”, “kasbiy-pedagogik faoliyat” tushunchalari mazmuni va mohiyatining ochib berilganligi, kasbiy-pedagogik faoliyat tuzilmasi va komponentlari, psixologik-pedagogik xususiyatlari, funksiyalari hamda mazkur jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning aniqlashtirilganligi, muhandislik ta'limi va talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashga doir xorijiy tajribalarning tahlil qilinganligi, baholash mezonlari va darajalarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kasbiy-pedagogik ta'lim uzviyligini ta'minlashning tashkiliy-mantiqiy tuzilmasi, integrativ yondashuv asosida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning didaktik parametrlari, pedagogik karkas usuli asosida mazkur jarayonning to'rt ustunli (funksional, mazmunli, operatsional, evristik-algoritmik) modeli, “Pedagogik propedevtika” elektiv kursi va “Kasbiy-pedagogik faoliyat” integrativ dasturi, binar-dialogli integrativ ma'ruza hamda algoritmik-evristik topshiriqlarga asoslangan integrativ amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi, talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning integrativ texnologiyasini takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini gnostik, loyihalash, konstruktiv, kommunikativ, tashkiliy, korreksiyon-rivojlantiruvchi tarkibiy asoslarga muvofiq kasbiy faoliyat motivatsiyasi va ijodiy faollikni shakllantirish, natijalarni tahlil qilishga yo'naltirilgan mantiqiy tuzilmaga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan pedagogika ta'lim sohasi Davlat ta'lim standartini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 21-yanvardagi 89-03-350-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning umummadaniy va kasbiy kompetensiyalari tizimini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

integrativ yondashuv asosida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini mazmunli, boshqaruvga doir va ta'limiy bloklardan iborat didaktik parametrlarni ishlab chiqish, talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning integrativ modelini tizimli-jarayonli, aksiologik va reflektiv, shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan, mazmunli-funksional yondashuvni joriy etishning konseptual asoslariga muvofiq ravishda to'rt ustunli pedagogik karkasni loyihalash orqali takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan 5340200 – Bino va inshootlar qurilishi (sanoat va fuqaro binolari) bakalariat yo'nalishi uchun "Qurilish materiallari ham buyumlari" o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 27-martdagi 274-son buyrug'i, 274-022k-raqamli guvohnoma). Natijada, mutaxassislik fanlarini kasbiy-pedagogik faoliyatga yo'naltirib o'qitishning integratsiyalashgan mazmunini takomillashtirishga xizmat qilgan;

talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning integrativ texnologiyalarini maqsadni belgilash, dalillash, anglash, mustahkamlash, refleksiya bosqichlariga asoslangan texnologik xarita va algoritmik-evristik topshiriqlarni ishlab chiqish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan 5340500 – Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish bakalavriat yo'nalishi uchun "Beton ham temirbeton texnologiyasi" o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrda 648-son buyrug'i, 648-139-raqamli guvohnoma). Natijada, dual ta'limni tashkil etish bo'yicha talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 21 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilanganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 33 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa,

foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 134 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati aks ettirilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash dolzarb pedagogik muammo ekanligi, mazkur jarayonning pedagogik-psixologik xususiyatlari hamda muammoning amaliyotdagi holati yoritib berilgan.

Kasbiy-pedagogik faoliyatni rivojlantirish bilan bog'liq tadqiqot yo'nalishlarining nazariy va amaliy asoslarini aniqlashtirish o'z navbatida uning o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari hamda takomillashuv imkoniyatlari, mazmuni va tuzilmasini ishlab chiqishni, ijtimoiy yangilanish va ma'naviy yuksalishlar davrida har tomonlama yetuk, malakali mutaxassislarni tayyorlash zaruratini taqozo qiladi.

Tadqiqot doirasida falsafiy, sotsiologik, psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish bir necha yo'nalishlarda amalga oshirildi: kasbiy-pedagogik ta'limning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash; kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning istiqbolli maqsadli yo'naltirilgan jarayonining falsafiy, sotsiologik, psixologik asoslarini tahlil qilish va nazariy asoslarini aniqlash; nopedagogik ta'lim yo'nalishlari talabalarini kasbiy-pedagogik faoliyatga muvaffaqiyatli tayyorlashning asosiy manbalarini aniqlash.

Natijada, nazariy tahlillar jarayonida ajratib olingan jihatlar ma'lum bir umumiy fikrlarga kelish imkonini berdi. Jumladan, kasbiy-pedagogik ta'lim murakkab ochiq tizim sifatida ikkita omil – pedagogika fani yutuqlari va o'quv amaliyotining ehtiyojlari ta'sirida rivojlanadi. Mazkur omillarning murakkab o'zaro munosabatlarga egaligi, ularning o'zaro uyg'un amalga oshishi lozimligini alohida ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Amaliy faoliyatda yuzaga keladigan innovatsion pedagogik jarayonlar yangi pedagogik g'oyalarni yuzaga keltiradi. Shu munosabat bilan pedagogik nazariyaning asosiy funksiyalaridan biri metodologik vazifa bo'lib, u ta'limning “amaliy falsafasi”ni anglash imkonini beradi (B.G. Gershunskiy).

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ilmiy, ilmiy-metodologik izlanishlar tahlili kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash bilan bog'liqlikda tub o'zgarishlarni aniqlash imkonini berdi. Aniqroq qilib aytganda, “Ijtimoiy buyurtma – mutaxassisni tayyorlash” o'rniga, yangi – “ta'limiy ehtiyoj – ta'lim xizmatlari” paradigmasi qaror topdi; yagona oliy maktab o'miga turli ta'lim tashkilotlari vujudga kelmoqda va o'quv dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning muvaffaqiyati ko'plab omillarga bog'liq. Kasbiy-pedagogik faoliyatning shakllanganlik darajasi mazkur jarayonning natijasi sifatida namoyon bo'lishi zarur. Dual ta'lim o'z navbatida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashga nisbatan yuqori talablarni qo'yadi va ijodiy faoliyatga yuqori darajada tayyor mutaxassisni shakllantirishni ko'zda tutadi. Shuning uchun talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni ijodkorlikka yo'naltirilgan hamkorlikdagi ishni tizimli amalga oshirishni taqozo etadi.

"Kasbiy-pedagogik faoliyat" tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra murakkab atamalar sirasiga kiradi. Mazkur tushunchaning mohiyatini aniqlash turli mantiqiy qoidalar va gnoseologik yondashuvlardan foydalanish asosida amalga oshirilishi mumkin.


Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik taraqqiyot talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlariga ham murakkab tizim sifatida yondashishni talab etmoqda. Bu holatda kasbiy ta'lim hamma vaqt ham talabning kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish masalasini muvaffaqiyatli hal eta olmaydi. Shuning uchun bugungi kunda kasbiy ta'lim jarayonlariga talabning kelgusidagi shaxsiy hayoti va kasbiy faoliyatining o'zaro muvofiqligini ta'minlash, "qo'shimcha" mutaxassislik berish va faoliyat sohasini o'zgartira olishiga imkon berish, shaxsiy va kasbiy faoliyatida duch keladigan turli muammolarni hal etishga qodirligi va moslashuvchanligini shakllantirish kabi qator talablarni qo'ymoqda.

Kasbiy-pedagogik faoliyat o'zining psixologik-pedagogik xususiyatlariga ko'ra aniq maqsad, funktsiya, tarkibiy qismlardan tashkil topadi (1-rasmga qarang). Jumladan, kasbiy-pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanib, o'sib kelayotgan avlodni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Mazkur faoliyat avlodlarning o'zaro ijtimoiy bog'liq aloqalarini amalga oshirishga yoshlarni tayyorlash, shaxsiy salohiyatdan jamiyat taraqqiyotida foydalanishga yo'naltirilgan inson kapitalini yaratish bilan bevosita bog'liqdir.

Kasbiy-pedagogik faoliyatning maqsadi ijtimoiy buyurtma orqali belgilab berilsa ham, lekin aniq pedagogik vaziyatda nostandart tarzda yuzaga chiqadi. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchidan aniq vaziyat bilan bog'liqlikda maqsad qo'yish talab etiladi.

Shu o'rinda yana bir jihatni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, kasbiy-pedagogik faoliyat nafaqat nazariy bilimlarni tushunib yetishga yordam beradi, balki uning o'zi qadriyat sifatida nazariya qonunlari asosida rivojlanadi. Kasbiy-pedagogik bilimlar bir tomondan, muayyan maqsadga erishishi uchun shaxs ta'lim-tarbiyasi qonuniyatlarini tushunishni ta'minlansa, ikkinchi jihatdan munosib pedagog shaxsini qanday shakllantirish lozimligini belgilab beradi. Ana shu nuqtai-nazardan talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi uzluksiz jarayon ekanligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Kasbiy-pedagogik faoliyat qator funksiyalarni bajaradi. Umumiy tarzda mazkur funksiyalarni ikki nuqtai-nazardan ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi: moslashtirish va insonparvarlik. Moslashtirish funksiyasi tez o'zgaruvchan vaziyatlarda yosh avlodning o'ziga xos yangi muhit sharoitlariga singib ketishini



1-rasm. Kasbiy-pedagogik faoliyat tuzilmasi

ta'minlash, insonparvarlik funksiyasi shaxsning individual ijodkorligini rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Ilmiy dalillarning nazariy tahlili, ularni umumlashtirish va tizimlashtirish, shuningdek, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish talabalarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi mezon, yo'nalish va psixologik-pedagogik sharoitlarni aniqlash imkonini berdi: talabalarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashga qo'yilayotgan talablarning ta'lim tashkilotlari hamda jamiyat ehtiyojlari bilan o'zaro muvofiqdigi; talabalarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning ta'limiy hamda ijtimoiy-madaniy muhitga bog'liqligi; talabalarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning yuqori darajadagi refleksiv boshqaruvchanligini ta'minlash.

Tadqiqot muammosining amaliyotdagi holatini aniqlashtirish maqsadida o'quvme'yoriy hujjatlar (Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja va dasturlar) hamda xorijiy va milliy tajribalar tahlil qilindi. Dissertatsiyaning birinchi bobini uchinchi paragrafida mazkur tahliliy materiallar batafsil yoritib berilgan.


Respublikamizda ham professional ta'limda dual o'qitish tizimini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ana shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-mardagi 163-son "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora tadbirlari haqida"gi Qarori alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur Qarorga muvofiq, "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlangan. Unda dual ta'limni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari va mazmuni belgilab berilgan.

Professional ta'limda dual o'qitishni yo'lga qo'yish o'z navbatida, oliy ta'lim tashkilotlarida turli sohalar bo'yicha tahsil oladigan talabalarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning didaktik tizimini takomillashtirishni alohida taqozo etadi.

Dissertatsiyaning "Integrativ yondashuv asosida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning amaliy-texnologik tizimi" deb nomlangan ikkinchi bobida uzviylik va integrativ yondashuvning talabalarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashga doir didaktik imkoniyatlari, talabalarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning integrativ modeli va texnologiyalari yoritib berilgan.

Integrativ yondashuv pedagogik jarayonning istalgan komponentida integratsiya tamoyilini amalga oshirishni ko'zda tutadi va uning yaxlitligi va izchilligini ta'minlaydi.

Tadqiqot doirasida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish asosida integrativ yondashuvning didaktik parametrlari sifatida mazmunli (kasbiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, amaliy faoliyat tajribasi), boshqaruvga doir (kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash bosqichlari – adaptiv, yo'naltiruvchi, amaliy, refleksiv; jarayonni nazorat va tahlil qilish; muntazam tuzatishlar kiritib borish) va ta'limiy-evristik (maqsad va vazifalarning identivligi, shart-sharoitlar, texnologiya, shakl, metod va vositalar) bloklarni metodologik asos sifatida belgilash maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelindi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Integrativ yondashuv asosida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning didaktik parametrlari

Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning integrativ modelini ishlab chiqish murakkab bo'lganligi sababli tadqiqot konsepsiyasini belgilash, mazkur jarayon qonuniyatlari va tamoyillarini ham aniqlashtirishni taqozo etdi.

Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash konsepsiyasi quyidagi metodologik asoslarni o'zida aks ettirdi: empirik, ideallashtirilgan ob'ekt, g'oya, asosiy tushunchalar va qoidalar.

Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashga doir ko'pgina pedagogik nazariyalar, g'oyalar faoliyat tuzilmasini aniqlashtirish zaruriyatidan kelib chiqadi. Biroq jarayon tuzilmasi turlicha bo'lishi mumkin. Kasbiy-pedagogik faoliyat tuzilmasiga integrativ yondashuvni tatbiq etish asosida uning to'rtta turini ajratib ko'rsatish mumkin: funksional, mazmunli, jarayonli va algoritmik-evristik.

Ko'pincha ular har qanday tizimdan ayricha holatda nomlanadi. Mazkur tuzilmalar o'rtasidagi integratsiyani hosil qilish orqali ulardan aniq pedagogik faoliyatda foydalanish yo'nalishlarini belgilab olish mumkin. Kasbiy-pedagogik faoliyat turlari daraxtini yaratish orqali tuzilmalar o'rtasidagi aloqadorlikni hosil qilish mumkin. Dissertatsiyaning 2.2-paragrafidagi talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning funksional, mazmunli, jarayonli va algoritmik-evristik tuzilmasi tavsifi to'liq yoritib berilgan.

Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning mazkur to'rtta integrativ tuzilmasi o'rtasidagi qayta aloqa o'zaro muvofiqlik tamoyili asosida ta'minlanadi.

Ana shu sababli talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga maqsadli tayyorlash jarayoni quyidagi ikki yo'nalishning birligida amalga oshirilishi lozim:

tabaqalashtirish: psixik jarayonlarning paydo bo'lishi va anglanishiga doir harakatlarni o'zlashtirish, psixik faoliyatni shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlaydi;

integratsiya: harakatlarning natijaviyligini ta'minlaydi, shuning uchun faoliyatning yangi tuzilmalari yuzaga keladi. Faoliyatning yangi tuzilmalarining paydo bo'lish jarayoni mavjudlarini qayta tashkillashning asosidir.


Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash maxsus bilimlar tizimini o'zlashtirish, o'qituvchi shaxsida kasbiy zaruriy sifatlarning shakllanganligi bilan belgilanadi. Shakllangan ko'nikma va malakalar yig'indisi kasbiy faoliyatning anglanganligini ta'minlaydi. Aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bilim, ko'nikma va malakalar tizimidan foydalanishni talab etadi.

Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini strukturalashtirishga tizimli-jarayonli, aksiologik va reflektiv, shaxsiy-faoliyatga yo'naltirilgan, mazmunli-funksional yondashuvni joriy etishning konseptual asoslariga tayanish asosida mazkur jarayonning to'rt ustunli (funksional, mazmunli, operatsional, evristik-algoritmik) modeli ishlab chiqildi (3-rasmga qarang). Mazkur modelni loyihalash jarayoni pedagogik karkas (kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash elementlarini birlashtirib turuvchi tuzilmalar yig'indisi) usuli orqali amalga oshirildi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan model yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning bloklari o'zaro aloqador va yakuniy natijani aniqlashga xizmat qiladi; talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashga yo'naltirilgan harakatlarni tashkil etish vositasi sifatida pragmatik yo'nalganlikka egadir; talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash nuqtai nazaridan integrativ tizimni o'zida ifoda etadi.

Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda fan va ishlab chiqarish, nazariya hamda amaliyot uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladigan integrativ mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot doirasida binar-dialogli ma'ruza, algoritmik-evristik topshiriqlarga asoslangan integrativ amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish texnologiyasi ishlab chiqildi.

Integrativ mashg'ulotlar avvaldan rejalashtirishni talab etadigan, kasbiy-pedagogik faoliyat komponentlari o'rtasida mustahkam aloqalarni ta'minlashga xizmat qiladigan va quyidagi aniq algoritimga asoslanib amalga oshiriladigan texnologik jarayonlar majmuidir: integratsiya obyektlarini tanlash; integratsiya tamoyillarini aniqlash; integrallashgan omillar; integratsiya turlari; integrativ



3-rasm. Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning to'rt ustunli integrativ modeli

aloqa va shakllar; turli fan sohalariga doir bilimlarni birlashtiradigan o'quv modullari, elektiv kurslar va mavzular sifatida yuzaga chiqadigan integrallashgan obyektarni yaratish.

Integrativ ma'ruza va amaliy (seminar) mashg'ulotlar yaxlit o'qitish jarayonida o'qituvchilarning faoliyatida salmoqli o'rin egallaydi. Integrativ mashg'ulotlarda bilim, ko'nikma va malaka hamda kompetensiyalarni shakllantirish samarali amalga oshirish imkonini berib, nostandart tarzda tashkil etilishi bilan ham talabalarning mustaqil kognitiv faoliyatini rag'batlashga xizmat qiladi.

Integrativ binar-dialogli ma'ruza bugungi kunda yuqori samara beradigan zamonaviy mashg'ulot turi hisoblanadi. Mazkur ma'ruza har bir talabaning bilimlarni o'zlashtirish jarayonida yangi materiallarni ijobiy hissiy-emotsional tarzda anglab olish uchun katta imkoniyat yaratadi. Binar ma'ruza ikki ma'ruzachining dialogi tarzida o'tkaziladi. Unda asosiy professor-o'qituvchi bilan birga, yondosh fan mutaxassislari, amaliyotchi yoki ishlab chiqarish mutaxassislari ishtirok etadi.

"Binar-dialogli ma'ruza" mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish aniq texnologik xaritaga asoslanishni talab etadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Binar-dialogli ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar	Faoliyat mazmuni		
	O'qituvchi	Ishlab chiqarish mutaxassisi	Talaba
1-bosqich. Maqsadni belgilash (10 daqiqqa)	Mashg'ulotning mavzusi, maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan talabalarni tanishtiradi.	Mavzuni amaliyot bilan bog'lash orqali talabalarda motivatsiya uyg'otish	Talabalar nazariya va amaliyotning aloqadorligini tushunib yetish, zaruriy ma'lumotlarni o'zlashtirishga o'z-o'zini yo'naltirishga harakat qilishadi
2-bosqich. Dalillash (10 daqiqqa)	O'qituvchi talabalarni yangi mavzuni o'rganishning dolzarbligi va zaruriyati bilan tanishtiradi	O'rganilayotgan mavzuning zaruriyatini amaliyotdan misollar keltirish orqali asoslaydi	O'qituvchi va ishlab chiqarish mutaxassisiga savollar bilan murojaat qiladi hamda o'rganishning afzalligini anglaydi
3-bosqich. Anglash (40 daqiqqa)	Professor-o'qituvchi mavzuga doir nazariy materiallarni bayon etadi	Nazariy materiallarni amaliy misollar orqali asoslaydi.	Mavzuga doir nazariy qoidalarni o'zlashtiradi, professor-o'qituvchi va mutaxassisga savollar bilan murojaat qiladi.
4-bosqich. Mustahkamlash (10 daqiqqa)	Professor-o'qituvchi yangi mavzuni grafik organayzerlar va chizma-tasviriy modellar yordamida umumlashtiradi	Mavzuga doir amaliy jarayonlar bilan bog'liq keys topshiriqlarini taklif qiladi	Chizma-tasviriy modellar asosida o'rganilganlari bo'yicha o'z nuqta-nazarlarini yanada aniqlashtiradi, qo'shimcha savollar bilan murojaat qilishadi
5-bosqich. Refleksiya (tahlil, baholash va nazorat) (10 daqiqqa)	Evristik-algoritmik topshiriqlarni taqdim etadi	Amaliy faoliyat bilan bog'liq refleksiv savollar bilan murojaat qiladi	Evristik-algoritmik topshiriqlarni bajaradi va refleksiv savollarga javob beradi

Dissertatsiyada 1-jadvalda aks ettirilgan texnologik xarita asosida “Qurilish materiallari va buyumlari” fanidan loyihalangan namunaviy binar-dialogli ma’ruza mashg’uloti tavsifi to’liq bayon etib berilgan.

Binar-dialogli ma’ruzada muammoning nazariy va amaliy jihatlarini ochib berilsa, integrativ amaliy mashg’ulotlarda talabalar tomonidan olingan kompleks bilimlar mustahkamlanadi. Bu esa, bilimlarni yangi, kutilmagan vaziyatlarda qo’llash imkoniyatini yaratadi. Natijada, amaliy faoliyat tajribasini o’zlashtirish orqali kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Quyida misol tariqasida “Bunyodkor” ishbilarmonlik o’yiniga asoslangan integrativ mashg’ulot ishlanmasining qisqacha mazmunini keltirib o’tamiz.

Talabalarning “Bino va inshootlarni barpo etish texnologiyasi” fanini yaxlit idrok etish va kasbiy-pedagogik faoliyatga maqsadli yo’naltirish masalasini faol o’qitish metodlari, xususan, ishbilarmonlik o’yinlari yordamida samarali hal qilish mumkin. O’yin davomida talabalar binolarni barpo etish va mashg’ulotning taqvim rejasini loyihalashga doir amaliy ko’nikmalarga ega bo’ladilar.

Amaliy mashg’ulotning borishi. Dastlab talabalarga bir qavatli sanoat binosi montaji va ishchilar harakatlanish grafisini hisoblash hamda mashg’ulotning taqvim-mavzu rejasini tuzish jarayoni tushuntiriladi, so’ng ularni mashg’ulotning borishi va o’quv topshiriqlarini bajarish tartibi bilan tanishtiriladi.

O’yinni tayyorlash va o’tkazishga umumiy rahbarlik “Bino va inshootlarni barpo etish texnologiyasi” fani bo’yicha ma’ruza mashg’ulotlarini o’tkazayotgan o’qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Uning yordamchilari (2 kishi) sifatida 1 nafar kurs loyihasi rahbari va 1 nafar pedagog ishtirok etadi.

O’yinda bir vaqtning o’zida bitta akademik guruh ishtirok etadi, talabalar 5 nafardan qurilish-montaj bo’limlarining ishlab chiqarish-texnik bo’limi vakillaridan iborat 6 ta kichik guruhlarga bo’linadi. Kichik guruhlarga qurilish-montaj boshqarmasining ishlab chiqarish-texnik bo’limi (ICHTB) rahbarlik qiladi. Kichik guruh tarkibi quyidagi ko’rinishga ega bo’ladi: “mexanik” (1 nafar talaba); “texnolog” (1 nafar talaba); “hisobchi-dizayner” (1 nafar talaba); “professional ta’lim o’qituvchisi” (2 nafar talaba).

“ICHTB boshlig’i” oldindan o’qituvchilar bilan birgalikda o’z kichik guruhidagi talabalarni lavozimlarga taqsimlaydi, ishbilarmonlik o’yini ishtirokchilarining ishtirokini ta’minlaydi va nazorat qiladi. Boshliqning asosiy vazifasi hujjatlarni o’rganish, qurilish va mashg’ulotlarni tashkil etish texnologiyasining umumiy tamoyillari, ishlarni bajarish ketma-ketligini belgilash va natijani hakamlarga tatbiq etishdan iborat.

“Mexanik” binoning konstruktiv xususiyatlari va ishning turiga qarab mashina va mexanizmlarni tanlaydi hamda ularning harakatlanish jadvalini tuzadi.

“Texnolog” binoning konstruktiv xususiyatlari va ish turidan kelib chiqqan holda ishchilarni tanlaydi. Ishchi kuchi harakati, shuningdek, kasblar bo’yicha ishchi kuchiga bo’lgan ehtiyoj jadvalini ishlab chiqadi.

“Hisobchi-dizayner” muayyan turdagi ishlar va jarayonlarning davomiyligini belgilaydi, ishlab chiqarish va ishchi kuchi harakati, mashinalar va mexanizmlarning

harakatlanish, shuningdek, kasblar bo'yicha ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj jadvalini tuzadi. Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblab chiqadi.

“Professional ta'lim o'qituvchisi” bino va inshootlarni barpo etish texnologiyasi bo'yicha mashg'ulotlar taqvim-mavzu rejasini tuzish, nazariy va amaliy mashg'ulotlar mavzularining to'g'ri tanlanishi, mashg'ulotlar o'rtasida qayta aloqaning ta'minlanishiga erishish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqadi hamda talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga maqsadli yo'naltirib boradi.

1-3 nafar o'qituvchidan tashkil topgan “hakamlar guruhi” quyidagi funksiyalarni bajaradi: ICHTB rahbarlariga topshiriqlar beradi, o'yin ishtirokchilariga maslahat beradi, texnologlar, mexaniklar, hisobchi-dizaynerlar, professional ta'lim o'qituvchilarining uchrashuvini o'tkazadi, o'yinda yuzaga keladigan barcha bahsli masalalarni hal qiladi, o'yinning borishini nazorat qiladi va o'yin ishtirokchilarining faoliyatiga yakuniy baho beradi.

Shuningdek, integrativ amaliy mashg'ulotlarda kichik guruhlarda ishlashga doir evristik-algoritmik topshiriqlar, imitatsion metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda binar-dialogli va integrativ amaliy mashg'ulotlarni aniq texnologik bosqichlarga asoslanib tashkil etish, o'quv jarayonida evristik-algoritmik topshiriqlar, imitatsion va ishbilarmonlik o'yini kabi faol qitish metodlaridan foydalanish mazkur jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi hamda tajriba-sinov ishlari natijalari va tahlili yoritib berilgan.

Tajriba-sinov ishlarining maqsadini talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashga doir o'quv materiallarini tanlash va ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlaydigan pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirish tashkil qildi.

Tajriba-sinov ishlarining vazifalari etib quyidagilar belgilandi: 1) tajriba-sinov ishlarini bosqichlarini aniqlashtirish; 2) talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasini o'rganish; 3) pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirishning shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish; 4) tajriba-sinov ishlari samaradorligi ko'rsatkichlarini aniqlashtirish; 5) tajriba-sinov ishlari natijalarini tahlil qilish.

Tajriba-sinov ishlari 2017-2022-yillarda Qoraqalpoq davlat universiteti, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida o'tkazilib, tajriba-sinov ishlariga professional ta'lim hamda bino va inshootlar qurilishi ta'lim yo'nalishlarining 497 nafar talabasi jalb qilindi.

